

TARIX, BADIYYAT VA TARJIMA: “O‘TKAN KUNLAR” TAHLILI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.001>

Feruza Xusanboyevna Dadabayeva
ORCID: 0009-0009-4969-2929
dadabayevaferuza265@gmail.com
UBS

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida XIX asr tarixiy davrining badiiy talqini hamda asarning rus va nemis tillariga qilingan tarjimalarida tarixiy mazmunning qay darajada saqlanganligi tahlil qilinadi. Muallif tomonidan ilgari surilgan vatanparvarlik, milliy birlik va tarixiy ong g‘oyalari badiiy obrazlar orqali ochib beriladi. Tarjimalarda ayrim tarixiy va badiiy nozik jihatlarning yetarli darajada aks etmaganligi misollar asosida ko‘rsatilib, tarixiy romanlarni tarjima qilishda badiiy va tarixiy mas’uliyat muhimligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy roman, badiiy talqin, tarjima muammolari, tarixiy haqiqat, milliy ong, “O‘tkan kunlar”

HISTORICISM, ARTISTIC FEATURES, AND TRANSLATION ISSUES OF THE NOVEL BYGONE DAYS

Feruza Xusanboyevna Dadabayeva
ORCID: 0009-0009-4969-2929
dadabayevaferuza265@gmail.com
UBS

Abstract: This article examines the artistic interpretation of the nineteenth-century historical period in Abdulla Qadiri’s novel *Days Gone By* (“O‘tkan kunlar”) and analyzes the extent to which historical content is preserved in its Russian and German translations. The ideas of patriotism, national unity, and historical consciousness are revealed through literary images. Specific examples demonstrate translation shortcomings, emphasizing the importance of artistic and historical responsibility in translating historical novels.

Keywords: historical novel, artistic interpretation, translation issues, historical truth, national consciousness, *Days Gone By*

KIRISH

O‘zbek adabiyotida tarixiy romanlar xalqning o‘tmishi, milliy tafakkuri va ijtimoiy hayotini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ana shunday nodir asarlardan biri bo‘lib, unda XIX asrning ikkinchi yarmidagi Turkiston hayoti, siyosiy parokandalik va ijtimoiy ziddiyatlar badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Asar uzoq yillar davomida “tariximizning eng kir va qora kunlari”ni ko‘rsatishga qaratilgan roman sifatida baholab kelindi.

Biroq adabiyotshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, asarda yashirin tarzda milliy birlik, vatanparvarlik va mustaqillik g‘oyalari ham mujassamdir. Ushbu maqolada “O‘tkan kunlar” romanidagi tarixiy davrning badiiy talqini hamda uning rus va nemis tillariga qilingan tarjimalarida tarixiy va badiiy nozikliklarning qay darajada saqlanganligi tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

“O‘tkan kunlar” asarining bosh g‘oyasi “tariximizning eng kir va qora kunlari”ni tasvirlash, deb ta’kidlanar edi. Ammo yashirin holatda ifodalangan bo‘lsa ham, bizda “O‘tkan kunlar” asarining 20-yillarida mustaqillik, vatanni birlashtirish g‘oyasi mavjud bo‘lganligi mutaxassislar tomonidan e’tirof etildi. Vatandosh otaxonlarimizning asriy orzusi 1991-yilga kelib amalga oshirildi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida ana shu muqaddas orzularning badiiy in’ikosi mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida adabiyotshunos olim Izzat Sulton shunday degan edi:

“Biz “O‘tkan kunlar”da XIX asrdagi o‘zbek xalqi hayotining keng va haqqoniy manzarasini ko‘ramiz: Otabek, Yusufbek hoji, Kumush va boshqalar orqali oddiy sarbon va shohi to‘quvchidan tortib, xon saroyidagi amaldorlargacha bo‘lgan xalqning hamma tabaqalari ko‘z oldimizdan o‘tadi. Biz faqat shu hayot manzarasini yozuvchi bilan birgalikda bevosita mushohada etish natijasidagina feodal o‘tmishning ‘eng kir, qora’ kunlar bo‘lganligi haqidagi haqiqatga yetamiz, romaning bosh g‘oyasi vatanparvarlikka da’vat ekanini fahmlaymiz”[4,88].

Asarda bu jihatni Otabekning mana bu so‘zlaridan ham bilib olish qiyin emas: “Munimcha o‘rusning bizdan yuqoridaligi uning ittifoqidan bo‘lsa kerak, dedi Otabek, ammo bizning kundan-kunga orqaga ketishimizga o‘zaro nizoyimiz sabab bo‘lmoqda, deb o‘ylayman... Masalan, Musulmonqulni kim xolis odam deb o‘ylaydir? Uning yurt uchun qon to‘kishdan boshqa nimaga foydasi tegdi? Musulmonqul o‘z g‘arazi yo‘lida orada yo‘q nizolarni qo‘zg‘ab kuyovi SHERALIXONNI o‘ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo‘y kabi yuvvosh Toshkent hokimi Salimsoqbekni o‘ldirib, o‘rniga Azizbekdek zolimni belgiladi va o‘zini mingboshi e‘lon qilib, aqlsiz bir go‘dakni (Xudoyorni) xon ko‘tarib, el yelkasiga mindi” [1,65].

Asarda Abdulla Qodiriy satr ostida SHERALIXON to‘g‘risida quyidagi izohni berib ketadi:

Sheralixon Musulmonqulning singlisiga uylangan edi. Sheralixonning o'g'li Xudoyorxon shu Musulmonqulning singlisidan tug'ildi. Musulmonqul bemalol ish ko'rish uchun jiyani Xudoyorga qizini berib, o'ziga kuyov qilgan edi, deb izoh beradi muallif.

Ruscha tarjimada:

А по моему, урусы преуспевают из-за их сплоченности, - возразил Атабек. - У нас вечная междоусобица, вот почему мы и отстаем с каждым днем все больше и больше. ... Можно ли сказать, например, Мусульманкула беспристрастным человеком? Что принёс он народу, кроме кровопролития? И все это из корысти. Ему нужно было избавиться от своего зятя Шерали -хана, вот он и поднял смуту, придравшись к мустякам, и убил его. Так же невинно пострадал Мурад-хан, а казнив ташкентского правителя, смиренного как овца Салимсакбека, поставил на его место этого тирана Азизбека! Затем он провозгласил ханом несмышленного младенца Худояра, а себя объявил мингбаши с сел на спину народу [2.98].

Ruscha tarjimada mutarjim Abdulla Qodiriyning Sheralixonga bergan izohini ham tarjima matni sahifa ostida quyidagi ko'rinishda keltiradi: "Шерали-хан был женат на сестре Мусульманкула, у них родился сын Худаярхан, и Мусульманкул, чтобы захватить власть в свои руки, отдал дочь замуж за Худояр-хана (прим.автора) [2.98]"

Ayni paytda ruscha matnda asliyatdagi mingboshiga ham izoh beriladi: *"Мингбоши - дословно тысяцкий, в романе - высокая должность при ханском дворе, соответствующая премьер министру.[2,98]"*

Mingboshiga berilgan bunday izohni zamonaviy rusiyzabon o'quvchi yaxshi tushuna oladi. Bu to'g'ri.

Ammo ruscha tarjimada bir kamchilikka yo'l qo'yilgan. Asliyatda Abdulla Qodiriy Otabek tilidan so'zlab, Musulmonqulning Xudoyorni xon qilib ko'tarishini tasvirlashda mazkur ziyofatda xon nomini Otabek tilidan yomonlab aytmalik uchun "aqlsiz bir go'dakni (Xudoyorni) xon ko'tarib, el yelkasiga mindi", - deyish bilan kifoyalanadi. Ya'ni, e'tibor bering, Xudoyor nomini asar muallifining o'zi qavs ichida alohida holatda keltiradi. Ruscha tarjimada esa ana shu nozik, biroq juda muhim xususiyat nazardan chetda qoladi. Natijada bevosita Otabekning tilidan "provozglasil xanom nesmyshlyonnogo mladentsa Xudoyara" deb noto'g'ri talqinga yo'l qo'yiladi. Bu jiddiy masala. Xuddi shunday holatni vositachi rus tilidan amalga oshirgan olmon tarjimoni Arno Shpext ham takrorlagan.

Olmoncha tarjimada:

"Ich denke aber, dass den Russen deshalb alles gelingt, weil sie einig sind", entgegnete Otabek. „Bei uns herrscht ewige innere Fehde, und so bleiben wir von Tag zu Tag weiter zurück

Ist Mussulmonkul ein Gerechter? Was hat er außer Blutvergießen dem Volk gebracht? Er hat nur aus Eigennutz gehandelt. Um sich seines Schwagers Sheralichon zu entledigen, entfesselte er unter nichtigem Vorwand einen Aufruhr und tötete ihn. Genauso unschuldig musste Murodchon leiden. Und nachdem Mussulmonkul den Regenten von Taschkent, den lammfrommen Salimsokbek, hatte hinrichten lassen, setzte er Asisbek, den Tyrannen, an diese Stelle. Dann rief er den unmündigen Chudoyor zum Khan aus, ernannte sich selbst zum Mingboschi und setzte sich dem Volk in den Nacken." (Mingboschi - Tausendschaftsführer; hohes Amt im Hofe des Khans.)(3,107].

Olmoncha tarjimada rus tarjimonining Sheralixonning kelib chiqishiga bag'ishlangan izohining tarjimasi ham tushirib qoldirilgan. Bu ham olmon kitobxoniga o'sha davr Qo'qon xonligi to'g'risidagi muhim bir ma'lumotni yetkazib berilmasligiga olib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"O'tkan kunlar" romanining tarixiy-badiiy mohiyati, g'oyaviy yo'nalishi hamda asarda aks etgan tarixiy haqiqat masalalari o'zbek adabiyotshunosligida turli davrlarda tadqiq etib kelingan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Abdulla Qodiriy ijodini mafkuraviy yondashuvlardan holi holda baholashga urinishlar kuchaydi va bu jarayonda roman tarixiylik, badiiylik hamda milliy ongni shakllantiruvchi asar sifatida talqin qilindi.

Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" asarida "O'tkan kunlar" romani o'zbek tarixiy romanchiligining yuksak namunasi sifatida baholanib, unda XIX asr o'zbek jamiyatining ijtimoiy qatlamlari, siyosiy muhit va ma'naviy hayoti keng va haqqoniy tasvirlangani ta'kidlanadi. Olim romanning bosh g'oyasini feodal o'tmishning tanqidi bilan birga, vatanparvarlik va milliy birlikka da'vat sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv asarni faqat "eng kir va qora kunlar" tasviri bilangina cheklab qo'yish noto'g'ri ekanini ko'rsatadi [4,211].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani va uning rus tilidagi tarjimasi qiyosiy jihatdan ham o'rganilgan. Ruscha tarjimada tarixiy terminlar, lavozim nomlari va real shaxslar bilan bog'liq izohlarning berilishi ayrim hollarda asarning tarixiy mazmunini ochishga xizmat qilgan bo'lsa-da, ba'zi nozik badiiy-uslubiy jihatlarining yo'qolishiga olib kelgan. Xususan, muallif nutqi bilan qahramon nutqi o'rtasidagi chegaraning buzilishi tarixiy shaxslar obraziga nisbatan noto'g'ri talqinlarga sabab bo'lgan.

Nemis tiliga amalga oshirilgan tarjimada esa asar ruscha vositachi matn asosida o'girilgani sababli ayrim tarixiy izohlarning tushirib qoldirilgani kuzatiladi. Bu holat o'sha davr Qo'qon xonligi siyosiy muhitiga oid muhim ma'lumotlarning nemis kitobxoniga to'liq yetib bormasligiga olib kelgan. Shu jihatdan, "O'tkan kunlar"

tarjimalini tahlil qilish tarixiy romanlarni tarjima qilishdagi mas'uliyat masalasini kun tartibiga olib chiqadi.

Tarixiy haqiqat va badiiy adabiyot munosabatiga doir masalalar Abdulla Oripov ijodi misolida ham adabiyotshunoslar tomonidan yoritilgan. Shoir Abdulla A'zamov tarixiy haqiqatning uch xil shaklda - rasmiy hujjatlar, xotiralar va badiiy adabiyot orqali saqlanishini ta'kidlab, aynan badiiy adabiyot tarixni keng omma ongida jonlantirish qudratiga ega ekanini qayd etadi. Ushbu nazariy qarashlar "O'tkan kunlar" romanining tarixiy ahamiyatini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "O'tkan kunlar" romani nafaqat tarixiy davrning badiiy talqini, balki milliy ong va tarixiy xotirani shakllantiruvchi muhim manba sifatida ham ahamiyatlidir. Asarning tarjimalarini tahlil qilish esa tarixiy romanlarni tarjima qilishda badiiy aniqlik va tarixiy mas'uliyat muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

XULOSA

Bir qaraganda, bu juz'iy bir kamchilikdek ko'rinadi. Ammo jiddiyroq qaralganda, bu asarda XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda bo'lib o'tgan tariximizning "eng kir va qora kunlari" talqini yotibdi. Zero, tarixiy romanlar orqali xalqlar insoniyat tarixi to'g'risida juda ham qimmatli ma'lumotlarni oladilar.

Bu haqda professor Abdulla A'zamovning O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ijodida tarixiy haqiqat masalasi yuzasidan aytgan quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: "Odatda zamonning pastu-balandi bir necha usulda tarix sahifalariga muhrlanadi. Biri - arxivlardagi hujjatlarda, davriy matbuot sahifalarida, risolalarda aks etgan ma'lumotlarki, ular ko'pincha zamonasozlik ruhi bilan sug'orilgan bo'ladi. Bunday manbalar asta-sekin tarix sandig'ining tubiga cho'kib, unutila boradi, muayyan qismigina tarixshunoslarning tadqiqot obyektiga aylanadi. Ikkinchisi - tarixni bevosita boshidan kechirgan, turli voqealarga guvoh bo'lganlarning xotiralari bo'lib, ular ham o'z ko'zi bilan ko'rmagan, o'zi ishtirok etmagan avlodga ko'pincha ertak, rivoyat bo'lib tuyila boshlaydi.

Nihoyat, yana bir tarix bor. U ham bo'lsa, badiiy adabiyotda obrazli kechinmalar orqali o'z aksini topgan tarix bo'lib, keng ommaga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga molik. Tarixning bu shakli kitobxon ko'z oldida davrni butun murakkabliklari, fojialari va iztiroblari bilan yorqin namoyon etish qudratiga, sehriga egadir."

O'zbekiston xalq shoiri ijodiga nisbatan Abdulla A'zamov aytgan ana shu ta'rifda aytilgan tarixiylilikni biz hammadan ham ko'p "O'tkan kunlar"da ko'ramiz, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Demak, bunday asarlardagi tarixiy kolorit tarjimasiga jiddiy tayyorgarlik va mas'uliyat bilan yondashish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy. (1980). *O'tkan kunlar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Abdulla Qodiriy. (1958). *Minuvshiye dni*. Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti.
3. Qodiriy, A. (1968). *Die Liebenden von Taschkent*. Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt.
4. Sulton, I. (2005). *Adabiyot nazariyasi*. Toshkent: O'qituvchi.
5. Salomov, G'. (1980). *Adabiy an'ana va badiiy tarjima*. Toshkent: Fan.
6. Salomov, G'. (1978). *Tarjima nazariyasiga kirish*. Toshkent: O'qituvchi.
7. Salomov, G'. (1966). *Til va tarjima*. Toshkent: Fan.